
Qo'shtepa tumanida alkogolga tobelik kuzatilgan shaxslar uchun chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi

Qo'shtepa tumani prokuraturasining tashabbusi bilan Madaniyat markazida alkogolga tobelik kuzatilgan shaxslar chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik o'tkazilib, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish ishlariiga ham keng ko'lamda e'tibor qaratildi. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan ushbu fuqorolarni bandligini ta'minlash maqsadida "Bo'sh ish o'rirlari" mehnat yarmarkasi ham tashkil etildi.

Tibbiy ko'rik davomida 9 ta shifokor mutaxasislar tomonidan bemorlarga amaliy yordam ko'rsatildi va tibbiy ko'rik natijasiga ko'ra ularning 4 nafari majburiy, 1 nafari ixtiyoriy bo'limlarga davolanishga yuborildi.

2024-09-25 19:46:00